



Ikkinchi Jahon Urushi Yillarida O‘zbekiston Iqtisodiyoti, Sanoati Va Qishloq Xo‘jaligining G‘alabani Ta‘minlashdagi Strategik Ahamiyati

Oblomuradov Naim Xalimovich -

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori,
tarix fanlari doktori

Annotatsiya: Maqolada Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekiston xalqi front ortida tengsiz jasorat va matonat namunalarini ko‘rsatib, g‘alabani ta‘minlashga munosib hissa qo‘shganligi ilmiy-tarixiy jihatdan yoritilgan. 1941-1945 yillarda O‘zbekiston iqtisodiyoti, sanoati va qishloq xo‘jaligining g‘alabani ta‘minlashdagi strategik ahamiyati hamda mehnat frontining asosiy yo‘nalishlari, erishilgan yutuqlar va dolzarb masalalar tahlil etilgan. O‘rganilgan davrda O‘zbekiston xalqining tarixiy qahramonligi, ular ko‘rsatgan mardlik va jasoratning ahamiyati retrospektiv metod orqali ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Ikkinchi jahon urushi, mehnat fronti, evakuatsiya qilingan korxonalar, “Hamma narsa – front uchun, hamma narsa – g‘alaba uchun!”.

Barchamizga ma‘lumki, urush har doim insoniyat uchun bitmas jarohatlar, ulkan talafotlar keltirgan mash‘um hodisa bo‘lib kelgan. Unda kimdir ozodligini, kimdir o‘z Vatanini, yana kimdir o‘z oilasini hamda farzandlarini yo‘qotadi. So‘nggi bir necha yuz yilliklarda insoniyat tarixida sodir bo‘lgan urushlar uchida eng katta talafot keltirganlari, albatta, Birinchi va Ikkinchi jahon urushlaridir. Ayniqsa, Ikkinchi jahon urushi qoldirgan jarohatlar hanuz millionlab qalblardan arigani yo‘q. O‘sha mash‘um urush oqibatida hanuzgacha qancha oilalar, qancha-qancha insonlar og‘ir sinovlarni boshdan o‘tkazmoqda.

Ikkinchi jahon urushi asosan yer yuzidagi 12 ta davlatlar hududida olib borilib, 60 ga yaqin davlatlarni o‘ziga qamrab olgan. Shu tariqa u yer shari aholisining salkam 80 foizini, ya‘ni 1,7 milliard kishini o‘z girdobiga tortdi. Ko‘p millatli O‘zbekiston xalqi butun taraqqiyparvar insoniyat qatori 1941-1945 yillarda Ikkinchi jahon urushida faol ishtirok etib, fashizm ustidan qozonilgan buyuk G‘alabani ta‘minlashga munosib hissa qo‘shdi. El-yurtimizni urush yillarida ko‘rsatgan mardlik va qahramonligi biz uchun ulkan jasorat maktabi, g‘urur-iftixor manbai bo‘lib, vaqt o‘tgani sayin bu o‘lmas qadriyatlarining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Shuning uchun har yili 9-may mamlakatimizda Xotira va qadrlash kuni sifatida keng nishonlanadi. Ikkinchi jahon urushida halok bo‘lgan ajdodlarimiz xotirasiga chuqur hurmat bajo keltirib fashizmga qarshi janglarda, mehnat frontida jonbozlik ko‘rsatgan faxriylarimizga alohida etibor va ehtirom ko‘rsatish yurtimizda olijanob an‘anaga aylanib qoldi.

Yaqin vaqtlarga qadar, 1941-yilda O‘zbekiston aholisi jami 6 million 551 ming kishini tashkil etgan va ularning 1 million 500 mingga yaqini urushda ishtirok etgan, deb hisoblanar edi. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 9 may – Xotira va qadrlash kuni hamda Ikkinchi jahon urushida qozonilgan buyuk g‘alabaning 79 yilligi munosabati bilan “O‘zbekiston xalqiga bayram tabrigi”da qayd etilganidek, “O‘sha og‘ir yillarda frontga safarbar etilgan 1 million 950 mingdan ziyod o‘zbekistonlik jangchilardan 538 mingdan ko‘prog‘i halok bo‘lgani, 158 mingdan ortig‘i bedarak yo‘qolgani, 870 mingdan oshig‘i turli jarohatlar olgani, 60 ming nafardan ziyodi esa nogiron bo‘lib qaytgani bu g‘alaba biz uchun naqadar qimmatga tushganini yaqqol ko‘rsatib turibdi. Ana shu qirg‘inbarot urush xalqimiz qalbida qoldirgan bitmas jarohatni, oradan shuncha vaqt o‘tgan bo‘lsada, hamon*



unutib bo'lmaydi" [2].

Yangi O'zbekistonda jasorati, mardona mehnati, metin irodasi va insoniyligi bilan bashariyatni fashizm balosidan saqlab qolib, dunyoda tinchlik o'rnatilishiga hissa qo'shgan yurtdoshlarimizning muqaddas xotirasiga hurmat bilan munosabatda bo'lish qadriyat hisoblanadi. Muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning tashabbuslari bilan poytaxtimizdagi G'alaba bog'i ikkinchi jahon urushi maydonlarida hamda mashaqqatli mehnat frontida mardlik va jasorat ko'rsatgan barcha yurtdoshlarimizga yuksak hurmat va ehtirom ko'rsatish, ularning nomlarini abadiylashtirish, o'zbek xalqining buyuk g'alabaga qo'shgan ulkan hissasini keng miqyosda namoyon etish hamda yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, urush asoratlarini hech qachon unutmaslikka chorlov maqsadida tashkil etildi.

Ikkinchi jahon urushining g'olibona yakunlanishida O'zbekistonliklarning front va front orqasidagi jasoratlari katta hissa bo'lib qo'shildi. O'sha olovli yillarda O'zbekistonda yetti yoshdan yetmish yoshgacha butun xalqimiz "hamma narsa – front uchun, hamma narsa – g'alaba uchun!" deb yashadi, orom va halovatdan voz kechib, tinimsiz og'ir mehnat qildi. respublikamiz frontning mustahkam ta'minot bazasiga aylandi.

Front hududlaridan minglab aholi, sanoat korxonalar, o'quv yurtlari, ilmiy muassasalar va boshqa moddiy boyliklarni mamlakat ichkarisiga ko'chirish boshlab yuborildi. Ular orasida Leningrad to'qimachilik mashinalari zavodi, "Krasniy-Aksoy", "Rosselmash", Sumsk kompressor va Dnepropetrovsk karborund zavodlari, Moskvadagi "Elektrokabel" va "Pod'yomnik" zavodlari, Chkalov nomidagi aviatsiya zavodi, "Krasniy put" zavodi, Kievdagi "Transsignal" zavodi, Stalingrad kimyo kombinati va boshqa ko'pgina korxonalar bor edi [3].

Urush yillari, ommaviy safarbarlik va xo'jalikning harbiy izga ko'chirilishiga qaramasdan, urush yillarida respublikamizda 280 ta yangi korxonalar ishga tushirilib, ularning aksariyati bir oyda, uzog'i bilan 45 kunda mahsulot bera boshladi. Natijada 1945-yilga kelib, respublikada sanoat ishlab chiqarishi urush arafasidagiga nisbatan deyarli ikki barobar ortdi, neft qazib olish 4, metall ishlab chiqarish 4,8, mashinasozlik mahsulotlari 13,4 barobar, ko'mir qazib chiqarish 30, energiya ishlab chiqarish 2,42 bora ko'paydi. Respublika sanoati 1940-yilga nisbatan ikki barobar ko'paydi.

Mahalliy va evakuatsiya qilingan korxonalar bazasida harbiy mashinasozlik rivojlanib, 1943 yilda bu soha 4 barobar o'sdi. Shuningdek, kichik va o'rta gidrostansiyalar qurilishi evakuatsiya qilingan korxonalar uzluksiz ishini ta'minlab berdi. O'zbekistonda 1942-1943 yillarda elektr energiyasi ishlab chiqarish 4 barobar ko'paydi [4].

1941 yil 26 iyundan boshlab mamlakatda ishchi va xizmatchilarga ishdan tashqari vaqtda majburiy mehnat qilish, katta yoshdagilar uchun haftada 6 kunlik, kuniga 11 soatlik rejim joriy etilib, ta'tillar bekor qilindi. Idora xizmatchilari, uy bekalari va o'quvchilar ham ishlab chiqarishga jalb qilindi. Agar 1940 yilda sanoat ishchilari orasida xotin-qizlar salmog'i 34 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 1942 yilda bu ko'rsatkich 63,5 foizga yetdi.

Bu davrda O'zbekistonda yangi mehnat rejimi joriy qilindi, ya'ni ish kuni uzaytirildi, dam olish kunlari va mehnat ta'tillari bekor qilindi. O'zbekiston sanoatchilari 1941 yil oxirigacha 300 ga yaqin korxonani jangovar texnika, qurollar, o'q-dori ishlab chiqarishga moslashtirib qayta qurdilar. Bu korxonalarda frontga safarbar etilgan erkaklar o'rnini keksalar, xotin-qizlar egalladi.

Urushning dastlabki paytlaridayoq 20 mingga yaqin toshkentlik xotin-qizlar sanoat korxonalari va qurilishlarda, 1700 ga yaqin respublika xotin-qizlari ko'mir koni shaxtalarida ishlashga yo'l oldi. Ishlab chiqarishni ishchi va mutaxassislar bilan ta'minlash choralari ko'rildi [5]. Respublika oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari, hunar-texnika bilim yurtlari, fabrika-zavod ta'limi maktablarining faoliyati urush davri talablariga mos kadrlar tayyorlashga yo'naltirildi. Yakka tartibda va brigada tariqasida hunar o'rgatish ishlari yo'lga qo'yildi.



Respublikamiz qishloqlarining aholisi frontni va front orqasini oziq-ovqat, sanoatni xom ashyo bilan ta'minlash uchun oyoqqa turdi.

Har bir ishchi ikki-uch ish normasini bajarish uchun fidokorona mehnat qildi. Urush bo'layotgan va dushman yaqinlashib kelayotgan hududlardan muhim sanoat korxonalarini O'zbekistonga zudlik bilan ko'chirib keltirish, joylashtirish ishlari boshlanib ketdi.

Urushning eng og'ir va musibatli onlarida o'zbekistonlik temiryo'lichilar ozod qilingan Stalingard shahriga birinchilardan bo'lib yordam qo'lini cho'zdilar. Toshkent temir yo'li korxonasi Volga bo'yidagi shaharni fashist bosqinchilaridan ozod qilishda va ozod qilingan shaharni tiklashda ko'mak berish uchun 33 vagona yuklangan turli xildagi tibbiyot buyumlari, harbiy gospitallar uchun o'rin joylar, telefon aloqa simlari, maxsus kiyim-bosh, xo'jalik buyumlarini yubordilar.

Respublikaning yosh va o'smirlardan iborat bo'lgan quruvchi va remont brigadalari shaharga 93 ta parovozni qayta ta'mirlab jo'natgan bo'lsalar, Xarkovga-40 ta, Donbassga-30 ta shunday parovozlarni va turli texnik qurilmalarni qayta ta'mirlab jo'natdilar [6]. Bunday qahramonlik uchun Ittifoq aloqa va yo'l tarmoqlari Xalq Komissarligi Toshkent temir yo'l korxonasi ma'muriyati yoshlariga alohida minnatdorchilik bildirib, bunday qahramonlik haqidagi xabar Ittifoqning barcha gazeta va jurnallarida bosilib chiqdi [7].

Uzoq davom etgan janglardan so'ng ozod qilingan qahramon shahar Ukrainaning Xarkov shahriga ko'mak berish uchun Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Andijon, Surxondaryo va Qoraqalpog'istonlik mehnat jamoalari hamda mehnatkashlari labbay, deb javob berib, qardosh o'lkaga turli xildagi oziq-ovqat, kiyim-bosh, quruq meva va xo'jalik sovunlarini yetkazib berdilar. Moddiy ko'makning amaliy tasdig'i sifatida insonparvar o'zbek xalqi 1943-yilda shahar aholisi va jangchilar uchun bir eshelonda, ya'ni 22 vagona yuk stanoklari, elektr buyumlari, qurilish materiallarini jo'natdilar.

O'zbeklarga xos yuksak mehr-oqibat va bag'rikenglikning namunasi sifatida Buxoro shahrida o'tkazilgan ommaviy mitingda so'zga chiqqanlar shahardagi korxonalar ishchilari ixtiyoriy ravishda yakshanba kunlari ham qo'shimcha ishlash hisobiga, bir kunlik ish haqlarini Xarkov shahridagi mudofaa fondiga o'tkazishga qaror qildilar. Xarkov shahridagi bolalar bog'chasi uchun esa bir kunda 100 ta matrats, 100 ta odeyal va ko'rpa to'shaklarni yuborishga qaror qilganliklari xalqimiz bag'rikenligi va mehnat jasoratiga yaqqol dalildir.

1943-yilda Samarqand va Namangan viloyati qishloq mehnatkashlari ozod qilingan tumanlardagi kolhoz va sovxozlarga 1538 ta qo'y-qo'zi yuborgan bo'lsalar, xorazmlik chorvadorlar 184 ta qoramol, Surxondaryolik chorvadorlar esa 10 ming bosh chorva mollari, Qoraqalpog'iston ASSR Nukus, Chimboy va Kuybishev tumanlaridan minglab qo'y va echki jo'natilgan.

1944-yilning 20-yanvaridan 17-martgacha O'zbekistonlik mehnatkashlar o'z shaxsiy pullari evaziga ozod qilingan tumanlar uchun 122147 bosh chorva mollari sotib olib, beg'araz yordam tariqasida yubordilar [8].

Fashistlarning tor-mor qilinishida O'zbekistonda urush yillarida ishlab chiqarilgan qurol-aslahalar katta ahamiyat kasb etdi. Sanoatning asosiy qismi harbiy qurol ishlab chiqarishga yo'naltirilib, ular jang maydoniga uzluksiz yuborib turildi. Natijada O'zbekiston urush yillarida front uchun 2100 ta samolyot, 17342 ta aviamotor, 2 318000 dona aviabomba, 60 mingga yaqin harbiy-kimyoviy apparatura, 22 mln. dona mina va 560 ming dona snaryad, 1 mln. dona granata, 330 mingta parashyut, harbiy ehtiyoj uchun 100 ming kilometrdan ortiq turli simlar, minalarni aniqlab beruvchi 4,5 ming dona qurilma, 2 861000 ming dona armiya etiklari va 59 mingdan ortiq ot va ko'pgina boshqa harbiy anjomlar yetkazib berdi.

Ko'chirilgan korxonalaridan tashqari O'zbekistonda 280 ta yangi sanoat korxonasi barpo etildi [9]. 1941-1945 yillarda O'zbekistonda neft qazib chiqarish 4 baravar, ko'mir qazib chiqarish 30 baravar, elektr energiya ishlab chiqarish 2,42 baravar va po'lat



eritish 2 baravar ko 'paydi. Shuningdek, respublika metallga ishlov berish sanoati quvvati 4,8 baravar va mashinasozlik ishlab chiqarish quvvati 13,4 baravar o'sdi [10].

O'zbekistonda ham yalpi ishlab chiqarishda sanoatning ahamiyati ortib bordi. Yalpi ishlab chiqarishda sanoatning ulushi 1938 yilda 69,4%dan 1945 yilda esa 80%ga ko'paydi [11]. Sanoat va qishloq xo'jaligi o'rtasidagi muvozanatning keskin o'zgarishi iqtisodiy resurslarning harbiy sanoatga ko'plab ajratilishi bilan bog'liq edi.

Urushda g'alabaga erishish transport ishi bilan bog'liq edi. 1943-yil 25-yanvarda "Toshkent temir yo'li ishi to'g'risida" maxsus qaror qabul qilindi. Temir yo'l harbiy holatga o'tkazildi, unda ishlovchilar safarbar etilgan deb hisoblandi, harbiy xizmatchilar kabi qattiq intizomga rioya etish majbur qilib qo'yildi. Poezdlar harakatining qo'shinlar va harbiy yuklarni birinchi navbatda o'tkazib yuborishini ko'zda tutuvchi harbiy grafik joriy etildi. Toshkent temir yo'l transportchilari ko'chirib keltirilayotgan korxonalarining asbob-uskunalarini va millionlab kishilarni G'arbdan Sharqqa, jangovar texnika va qurol-yarog'larni Sharqdan G'arbg'a o'z vaqtida to'xtovsiz o'tkazib turish topshirig'ini bajardi [12].

Voronej va Kursk shaharlariga 275 bosh qoramol, 72 tonna g'alla, 24 tonna quruq meva olib ketildi. Bulardan tashqari, respublika bo'yicha 300 tonna g'alla, 180 tonna quruq meva, 10 ming juft oyoq kiyim, 200 ming metr gazlama, 2600 ming so'm naqd pul, yuk mashinasi, telefon stansiyasi jo'natildi. Ukraina uchun 350 ta traktor, 200 ta avtomashina, 50 ta kombayn, 1500 ta omoch berildi. Stavropol o'lkasiga 1142 ta raktor, 400 ta seyalka 1142 nafar agronom va haydovchisi bilan jo'natildi. Ozod qilingan joylarga Surxondaryo, Qashqadaryo va Buxoro viloyatlari 50 ming bosh qo'y va 190 ming bosh qoramol yuborgan. Shuningdek, nemis-fashistlaridan tozalangan respublika va viloyatlarga 1944-yili 100 000 kitob sovg'a qilingan edi [13].

Urush yillari Mudofaa fondiga 17,6 mlrd. rubl naqd pul, 13,2 kg. platina, 131,4 kg oltin, 9.519 kg. kumush, 1,7 mlrd rubllik qimmatbaho taqinchoqlar kelib tushgan. O'zbekistonda ham urushning dastlabki kunlaridan mudofaa jamg'armasini tashkil etish maqsadida ishchilar, kolxozchilar, ziyolilar bir kunlik ish haqlari, kommunistik shanbaliklardan ishlab topilgan pullarni, fuqarolarning shaxsiy jamg'armalari, qimmatbaho boyliklar, davlat zayomlari, buyumlar, oziq-ovqat mahsulotlari topshirdilar [14].

Respublika qishloq xo'jaligi xodimlari ham urush yillarida haqiqiy jasorat namunalarini ko'rsatdilar. Urush yillari mobaynida respublika dehqonlari davlatga 4 mln. 148 ming t. paxta, 82 mln. pud g'alla, 54067 t. pilla, 195 ming t. sholi, 57 ming 444 t. meva, 36 ming t. quritilgan meva, 159 ming 300 t. go'sht, 22 ming 300 t. jun va boshqa ko'pgina mahsulotlar yetkazib berdilar [15].

Geologik qidiruv ishlari natijasida ko'plab qora va rangli metall konlari ochildi. Urush yillaridaeq Langar, Ingichka, Qo'yto'sh, Qoratepa, Olmaliq rangli metall konlari, Oqtosh boksit koni o'zlashtirildi. Ulardan qazib olingan volfram, molibden, mis, alyumin va boshqa mahsulotlarni qayta ishlash bilan bog'liq korxonalar qurildi. Kimè, qurilish materiallari sanoati, to'qimachilik va poyabzal sanoati, oziq-ovqat sanoati, mahalliy sanoat tarmoqlarini rivojlantirish tadbirlari amalga oshirildi. Faqat 1943-yilda 12 ta yog' zavodi, 3 ta paxta tozalash zavodi, 4 ta qand va 4 ta konserva zavodlari qurilib ishga tushirildi [16].

Bu davrda barcha sa'y-harakatlar front ehtiyojlariga, ayniqsa ilmiy-tadqiqot ishlari, ijodiy tashabbuslar barchasi mamlakat mudofaasini kuchaytirishga yo'naltirilgan edi. Sanoat korxonalarining O'zbekistonga evakuatsiya qilinishi respublikada sanoatning g'oyat muhim tarmoqlari bo'lgan energetika, kimyo, metallurgiya, metallsozlik sanoatlarini vujudga kelishiga sabab bo'ldi.

Urushining g'olibona yakunlanishida o'zbekistonliklar ko'rsatgan jasorat ham e'tiborsiz qolmadi. Ya'ni, 120 mingdan ortiq O'zbekistonliklar SSSRning orden va medallariga sazovor bo'ldilar. 301 nafar O'zbekistonliklarga "Sovet Ittifoqi Qahramoni" unvoni berildi, 82 nafar



jangchi “Shuhrat ordeni” bilan taqdirlandi. O‘zbekiston urushdan katta yo‘qotish bilan chiqdi.


Davlatimiz rahbari “unib-o‘sib kelayotgan yosh avlod fashizm balosiga qarshi kurashda jasur ajdodlarimiz ko‘rsatgan mardlik va matonatni aslo yodidan chiqarmasligi kerak”, - deya ta’kidladi [17]. Shuningdek, Prezident ushbu tarixiy haqiqatni yosh avlodga to‘la yetkazish va yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda barcha mutasaddi tashkilotlar, olimlarimiz, ijodkor ziyolilarimiz faol ishtirok etishiga ishonch bildirdi.

Bugun xalqimiz Prezidentimiz rahnamoligida yangi O‘zbekistonni barpo etmoqda. Yangi hayot, beqiyos o‘zgarishlar har birimizdan fidoyilik va bunyodkorlikni, yana-da katta safarbarlikni talab etmoqda. Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, “Bu jarayonda tinchlik va osoyishtalikni asrash, jahon hamjamiyati, avvalo, qo‘shni davlatlar bilan do‘stlik va hamkorlikni kuchaytirishni biz eng muhim vazifamiz deb bilamiz” [18].

So‘nggi yillarda mamlakatimizda Ikkinchi jahon urushining har bir qatnashchisiga g‘amxo‘rlik ko‘rsatishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Ularning har biriga moddiy, ma‘naviy va boshqa turdagi yordamlar berib kelinyapti. Buni hech ikkilanmasdan yangi O‘zbekistonda xalq jasoratiga ko‘rsatilayotgan yuksak ehtirom namunasi, deyish mumkin. Qolaversa, bu bizni o‘tmishdan to‘g‘ri xulosa chiqarib, doimo hushyor va ogoh bo‘lishga, ajdodlarimizdan ibrat olib yashashga rag‘batlantiradi.

Adabiyotlar Ro‘yxati:

1. <https://president.uz/uz/lists/view/7893>
2. Шавкат Мирзиёев. Ўзбекистон халқига байрам табриги. 2024 йил 8 май – <https://president.uz/uz/lists/view/7219>.
3. ЦГА УзССР, ф.90, оп.8, д.6117, л.31.
4. Узбекская ССР в годы Великой Отечественной войны. Т. 1. – Ташкент: Фан, 1981. – С. 59.
5. М.Холиқулова. Иккинчи жаҳон урушининг дастлабки йилларида ўзбекистонда sanoat korxonalarining kўchiriliш тарихи. Ilm-fan taraqqiyotida zamonaviy qarashlar: muammo va yechimlar xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. <http://conf.sciencebox.uz/>
6. История Узбекской ССР, т.1У. Ташкент. “Фан”-, 1968, с.114.
7. Белоруссия и Узбекистан (Из истории развития межнациональных отношений белорусского и узбекского народов). Минск, Изд-во им. В.И.Ленина.1970, с.125
8. ЦГА УзССР, ф.Р-837, оп.32, д.4085,л.33.
9. Голованов А., Саидов Н. Вклад Узбекистана в победу над фашизмом. Часть II. – Самарканд: СамДУ, 2006. – С. 16.
10. Вклад трудящихся Узбекистана в победу в Великой Отечественной войны. – Ташкент: Фан, 1975. – С. 86.
11. Советская экономика в период Великой Отечественной войны 1941–1945 гг. – Москва: Наука, 1970. – С. 177.
12. <https://yuz.uz/news/ikkinchi-jahon-urushi-yillarida-ozbekistonda-300-ta-sanoat-korxonasi-faqat-harbiy-mahsulot>
13. История Узбекской ССР, т.1У. Ташкент. “Фан”-, 1968, с.114.
14. Soliq nazariyasi va tarixi.O‘quv qo‘llanma /I.M.Niyazmetov, S.A.Giyasov,F.A.Fayziyev, R.R.Duschanov – T.:«Chinor fayzi baland». 2022. 340 b.
15. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Тошкент, 2000. – Б. 450.
16. Қизил Ўзбекистон. 1944 йил 6 февраль.
17. <https://president.uz/uz/lists/view/1706>
18. <https://uza.uz/oz/posts/o-zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-b->



09-05-2020